

**INGLIZ TILI DARSALARIDA O'YIN – TOPSHIRIQLARDAN
FOYDALANISH USULLARI**

Qosimova M.

O'quv faoliyatiga qiziqishning asosiy manbai, avvalo, uning mazmunidir. Bu mazmun kuchli rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatish uchun ta'lism prinsiplarining qator talablariga javob berishi lozim. Bunda ta'lism mazmunining rag'batlantiruvchi ta'sirini oshirishdagi ayrim maxsus usullar ham mavjuddir. Ularda, birinchi navbatda yangilik, dolzarblik, yaratuvchilik holatlarini kiritish mumkin. Shu maqsadda pedagog mamlakat jamoatchiligidagi alohida qiziqish uyg'otadigan, vaqtli matbuotda e'lon qilinayotgan, televidenie va radio orqali berilayotgan faktlar, rasmlarni maxsus tanlaydi. Shundagina o'quvchi (talaba) lar darsda o'rganilayotgan masalalarning muhimligini yorqin va chuqur his qiladilar va unga katta qiziqish bilan yondashadilar. O'qishga rag'batlantirishning muhim usuli sifatida bilishga doir o'yinlarni aytish mumkin. U o'quv jarayonida hordiq chiqarish vazifasini yaratadi. O'yin o'qishga qiziqishni uyg'otuvchi vosita sifatida allaqachon tan olingan. Masalan, sayohat, elektroviktorina kabi o'yinlar yordamida muayyan hududning dunyosi, tabiat o'rganiladi.

Xorijiy tilni butun bir tizim sifatida olsak, uni o'rgatuvchi va o'rganuvchi kabi ikki tomonlar orqali tashkil topganiga amin bo'lamiz. Bunda albatta, o'qituvchi ta'lism jarayonining tashkilotchisi va uni amalga oshiruvchisidir.

Davlatimiz rahbarining 2021-yildagi "Uzluksiz ta'lism tizimining chet tillar bo'yicha davlat ta'lism standartini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori ham chet tillariga berilayotgan yuksak e'tibordan darakdir. Zero buning zamirida davlatimiz rahbari chet tillarni o'qitish bo'yicha dastlab Finlandiya, 2023-yildan boshlab esa Singapur ta'lism tizimidan foydalanish uchun bir qator ekspertlar jalg qilindi.

Ingliz tili darslarida til qoidalari, grammatik va fonetik tushunchalarni ilmiy-nazariy jihatdan asoslash bilan chegaralanib qolmay, har xil amaliy topshiriqlar, mustaqil ishlar, musobaqa va didaktik o'yinlar singari qiziqarli metodlarni qo'llash maqsadga muvofiqdir¹.

Ayniqsa, didaktik o'yinlarning ahamiyati shundaki, bu usul orqali o'quvchilarning bilim doirasi, topqirligini, izlanuvchanligini oshiradi va insoniy xislatlarning rivojlanish imkoniyatlarini keng ochishni vujudga keltiradi. YOshlarning qiziqishi ortgan sari mustaqil fikrlashga, mulohaza yuritish va munozara bahslarga o'rgana boradi. Asta-sekinlik bilan ularning jamiyat haqidagi nuqtai nazari shakllana boradi va bilish faolligi

¹ Shirinova N.D. Ingliz tili darslarida o'quvchilarning bilish faolligini oshirish. P.f.n.dis... –T.: 2006. 72 b.

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

oshadi. Ingliz tili dars jaaryonlarida, o'quvchilarning bilish izchilligini oshirishda ta'limi o'yinlarning turli xillaridan foydalanish mumkin.

Quyidagilarni misol keltirish mumkin:

Orfografik o'yinlarda o'quvchilarning so'z yasash ko'nikmasini shakllantirish.

Leksik o'yinlarda o'quvchilardan sanoq va juft sonlarni takrorlash so'raladi. Birma-bir o'quvchilar aytilgan sonning olmoshni aytiladi. Har bir xato uchun bir ball kamaytiriladi, yoki umumiy tildan ayrıлади. So'ng g'olib guruh sanalgan ballar bo'yicha aniqlanadi.

Grammatik o'yinlar o'quvchilarning mavzuni qay darajada tushunganligi va shu bilan birga zamonlar, fe'llarning qo'yish darajasini bilganliklarini aniqlashga yordam beradi. Bunga misol qilib krossvord tarzida zamonga doir fe'l yasash o'yinini olsak:

SKELETONJ

EMUTSOCEA

HAUNTEDFC


AMASKDGYK

LWONCCRKO

LIRCIAEOL

OTAERTBOA

ALPUMPKIN



Umuman bu o'yin orqali o'quvchining mustaqilligi, ijodiyligi, so'z boyligi tekshiriladi. Bu o'yin davomida o'quvchilarni guruhlarga bo'lib, ularning interaktiv hamda "competitiveness" ya'ni raqobatbardoshlik qobiliyatlarini ham rivojlantiriladi.

Strategiyalar o'quvchilar nutqida uchraydigan ayrim xatoliklarni bartaraf etishda muhim rol o'yaydi. SHunday qilib, o'yin-topshiriqlar va strategiyalar o'quvchining bilish faolligini oshiradi. Ta'lim jarayonida tashkil etiladigan o'yin-topshiriqlar o'quvchilarni zerikishdan saqlaydi, fikrlashga, izlashga undaydi. O'quv materiali asosida o'yin-topshiriqlar tuziladi va bu ta'lim mazmunining muayyan bir bo'lagi hisoblanadi. Bularning o'ziga xos xususiyati shundaki, u musobaqa tarzida namoyon bo'ladi. Natijasida guruh yoki o'quvchiga baho qo'yiladi. Bu, shubhasiz, o'quvchilarni fanga qiziqishini kuchaytirib vazifalarni astoydil bajarishga bo'lgan ishtiyoqni orttiradi.

Ingliz tili dars jarayonlarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish bugungi kunning ustivor maqsadlaridan biri bo'lib kelmoqda. Zamonaviy ta'limi tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablaridan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni o'quvchilarga etkazib berish, ularga ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

va malakalarni hosil qilish shuningdek, o'quvchilar faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallagan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lif jarayoniga nisbatan yangicha yondoshuvni talab etadi. Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda bu borada katta tajriba to'plangan bo'lib, ushbu tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmogda.

Bu metodlardan bir nechtasining mohiyati haqida quyida:

"Fikriy hujum" metodi.

Mazkur metod o'quvchilarning mashg'ulotlar jarayonidagi faolliliklarini ta'minlash, ularni erkin fikr yuritishga rag'batlantirish hamda bir xil fikrlash inersiyasidan ozod etish muayyan mavzu yuzasidan rang-barang g'oyalarni toplash, shuningdek, ijodiy vazifalarni hal etish echish jarayonining dastlabki bosqichida paydo bo'lgan fikrlarni engishga o'rgatish uchun xizmat qiladi¹.

"Fikriy hujum" metodi A.F.Osborn tomonidan tavsiya etilgan bo'lib, uning asosiy tamoyili va sharti mashg'ulot (bahs) ning har bir ishtirokchisi tomonidan o'rtacha tashlanayotgan fikrga nisbatan tanqidni mutlaqo ta'qilash, har qanday luqma va hazil-mutoyibalarni rag'batlantirishdan iboratdir. Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilarning mashg'ulot jarayonidagi ishtirokini ta'minlashdir. Bu metod darsning istalgan qismida foydalanish mumkin va eng asosiysi fikri tarqoq, shovqinli sinflar uchun juda ham yordam beradi. "Fikriy hujum" metodidan foydalanish chog'ida o'quvchilarning soni 15 nafardan oshmasligi maqsadga muvofiqdir.

"Fikrlarning shiddatli hujumi" metodi.

Bu metod E.A.Aleksandrov tomonidan asoslangan hamda G.YA.Bush tomonidan qayta ishlangan. "Fikrlarning shiddatli hujumi" metodining mohiyati quyidagichadir:

- jamoa orasida muayyan topshiriqlarni bajarayotgan har bir o'quvchining shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga ko'maklashish;
- o'quvchilarda ma'lum jamoa (guruh) tomonidan bildirilgan fikrga qarshi g'oyani ilgari surish layoqatini yuzaga keltirishdan iboratdir.

Metodni qo'llash jarayonida quyidagi holatlar yuzaga keladi:

- 1.O'quvchilar tomonidan muayyan nazariy bilimlarning puxta o'zlashtirilishiga erishish;
- 2.Vaqtni iqtisod qilish;
- 3.Har bir o'quvchini faollikka undash;
- 4.Ularda erkin fikrlash layoqatini shakllantirish.
5. Social or interpersonal, auditory(tinglab tushunuvchi) learners uchun aynan mos keladi.

¹O'.Tolipov. M.Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya. Fan nashriyoti. 2001. 114-117 betlar.

“Klaster” metodi

Klaster metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo‘lib, u o‘quvchilarga ixtiyoriy muammo (mavzu) lar xususida erkin, ochiq o‘ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g‘oyalar o‘rtasidagi aloqalar to‘g‘risidagi fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob‘ektga yo‘naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog‘liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o‘quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o‘zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo‘lishini ta’minlashga xizmat qiladi.

Stil va Stil g‘oyasiga muvofiq ishlab chiqilgan. “Klaster” metodi puxta o‘ylangan bo‘lib, undan o‘quvchilar bilan yakka tartibda yoki guruh asosida tashkil etiladigan mashg‘ulotlar jarayonida foydalanish mumkin. Guruh asosida tashkil etilayotgan mashg‘ulotlarda ushbu metod guruh a’zolari tomonidan bildirayotgan g‘oyalarning majmui tarzida namoyon bo‘ladi. Individual topshiriq qilib berilganda esa, bu o‘quvchidan problem-solving ya’ni muammoni yakka yechish ko’nikmasini talab qiladi va o‘quvchi tengdoshlaridan orqada qolmaslik yoki yomon baho olmaslik uchun harakat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O’. Tolipov. M. Usmonboyeva. Pedagogik texnologiya. Fan nashriyoti. 2001.
2. Shirinova N.D. Ingliz tili darslarida o‘quvchilarningbilish faolligini oshirish. P.f.n.dis... –T.: 2006.